XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2022 - yil 2 - iyul VI-45-120-8-108-K/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Tumandagi “Obod Vaxshivor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan yangi tashkil etiladigan mahallaga “Bodihovo” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014- yil 4- martdagi 48-son “Shahar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2021 yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022- yil 18-fevraldagi 18-07/50-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2022-yil 18-martdagi 01-14-367 sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi :**

1. Tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 18-fevraldagi 18-07/50-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik ob'ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2022-yil 18-martdagi 01-14-367 sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasi ma’qullansin.

2.Tumandagi “Obod Vaxshivor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan yangidan tashkil etiladigan mahalla fuqarolar yig‘ini nomi “Bodihovo” deb tasdiqlansin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (X.Qosimov) va tuman Ichki ishlar bo‘limi (O.Jiyanov) lar birgalikda o‘n kun muddatda tumanda “Bodihovo” mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish bo‘yicha tuman hokimi qarori loyihasini tayyorlasin, shuningdek, ushbu mahalla fuqarolar yig‘inini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda ushbu yangidan tashkil etiladigan mahallaga muhr va tamg‘alar olish bo‘yicha buyurtma berish ishlarini amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (O.Jiyanov)ga bir oy muddatda tumanda yangi tashkil etiladigan “Bodihovo” mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etilishi munosabati bilan ushbu mahallada doimiy ro‘yxatda turgan fuqarolarning fuqarolik pasportlaridagi doimiy yashash manzillariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Eshqobilov) bir oy muddatda tumanda yangi tashkil etiladigan “Bodihovo” mahalla fuqarolar yig‘inini geografik chegara hududlariga aniqlik kiritsin hamda mahallaning geografik xaritasini ishlab chiqib, tuman komissiyasiga qonun talablariga muvofiq tarzda ma’lumotlarni taqdim etilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosari (X.Qosimov), tuman Moliya bo‘limi (J.Jo‘raev) va tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Q. Safarov) lar bilan birgalikda bir oy muddatda tumanda yangi tashkil etiladigan “Bodihovo” mahalla fuqarolar yig‘ini uchun tasdiqlanadigan yillik moliya smetasiga asosan mahalladagi tashkil etiladigan shtatlar jadvalini qayta ko‘rib chiqsin va ushbu mahalla fuqarolar yig‘iniga munosib kadrlarni joylashtirish maqsadida kadrlar ro‘yxatini shakllantirish vazifalarini amalga oshirsin.

7. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**